



ISSN
3060-527X

№7
2026

TA'LIMDA ISTIQBÖLLI IZLANISHLAR



TA'LIMDA ISTIQBOLLI IZLANISHLAR

Xalqaro ilmiy-metodik jurnal

ПЕРСПЕКТИВНЫЕ ИССЛЕДОВАНИЯ В ОБРАЗОВАНИИ

*Международный научно-методический
журнал*

PROSPECTIVE RESEARCH IN EDUCATION

International scientific methodological journal

№ 7-Son, 1-Qism 2026-yil

Jurnal 2025-yilda tashkil etilgan.

Jurnal 1 yilda 12 marta nashr etiladi

Jurnal O'zbekiston Respublikasi Oliy ta'lim, fan va innovatsiyalar vazirligi huzuridagi OAK Rayosatining 2024 - yil 7 - iyundagi 355-son qarori bilan pedagogika va psixologiya fanlari bo'yicha dissertatsiya ishlari natijalari yuzasidan ilmiy maqolalar chop etilishi lozim bo'lgan zaruriy nashrlar ro'yxatiga kiritilgan.

MUNDARIJA:

Mualliflar	Maqola sarlavhasi	Yo'nalishi	Bet
<i>AXROROV VORIS YUNUSOVICH</i>	BO'LAJAK O'QITUVCHILARDA NIZOLI VAZIYATLARDA HISSIY BARQARORLIKNI RIVOJLANTIRISHNING IJTIMOY-PSIXOLOGIK ASOSLARI	PSIXOLOGIYA	10
	СОЦИАЛЬНО-ПСИХОЛОГИЧЕСКИЕ ОСНОВЫ РАЗВИТИЯ ЭМОЦИОНАЛЬНОЙ УСТОЙЧИВОСТИ БУДУЩИХ ПЕДАГОГОВ В КОНФЛИКТНЫХ СИТУАЦИЯХ		
	SOCIO-PSYCHOLOGICAL FOUNDATIONS FOR DEVELOPING EMOTIONAL STABILITY IN FUTURE TEACHERS IN CONFLICT SITUATIONS		
<i>ARABBAYEV AROBIDIN XUSNIDINOVICH</i>	PEDAGOGIK YO'NALISHDAGI MAGISTRANTLARDA ILMYI-TADQIQOT FAOLIYATI ASOSIDA ILMYI KO'NIKMALARNI SHAKLLANTIRISH	PEDAGOGIKA	15
	ФОРМИРОВАНИЕ НАУЧНЫХ НАВЫКОВ НА ОСНОВЕ НАУЧНО- ИССЛЕДОВАТЕЛЬСКОЙ ДЕЯТЕЛЬНОСТИ У МАГИСТРАТУР ПО ПЕДАГОГИЧЕСКОМУ НАПРАВЛЕНИЮ		
	FORMATION OF SCIENTIFIC SKILLS ON THE BASIS OF RESEARCH ACTIVITY IN MASTER STUDENTS IN PEDAGOGICAL DIRECTION		
<i>BADALXODJAYEV TO'LQINJON IKRAMIDDINOVICH</i>	SUN'IY INTELLEKTGA ASOSLANGAN MOSLASHUVCHAN O'QUV PLATFORMALARI	PEDAGOGIKA	24
	АДАПТИВНЫЕ ПЛАТФОРМЫ ОБУЧЕНИЯ НА ОСНОВЕ ИСКУССТВЕННОГО ИНТЕЛЛЕКТА		
	ARTIFICIAL INTELLIGENCE-BASED ADAPTIVE LEARNING PLATFORMS		
<i>HAMROYEVA XOLIDA RIZOQUL QIZI</i>	BOSHLANG'ICH SINIF O'QUVCHILARINING NUTQ FAOLIYATINI RIVOJLANTIRISHDA VIZUAL VOSITALAR VA O'YIN TEXNOLOGIYALARIDAN FOYDALANISH METODIKASI	PEDAGOGIKA	29
	МЕТОДИКА ИСПОЛЬЗОВАНИЯ ВИЗУАЛЬНЫХ СРЕДСТВ И ИГРОВЫХ ТЕХНОЛОГИЙ В РАЗВИТИИ РЕЧЕВОЙ ДЕЯТЕЛЬНОСТИ УЧАЩИХСЯ НАЧАЛЬНЫХ КЛАССОВ		
	METHODOLOGY FOR USING VISUAL AIDS AND GAME TECHNOLOGIES IN DEVELOPING THE SPEECH ACTIVITY OF PRIMARY SCHOOL STUDENTS		
<i>IBRAXIMJANOVA GAVHAR AMANBAYEVNA</i>	MUSIQA NAZARIYASI FANLARI UCHUN ELEKTRON TA'LIM PLATFORMALARINI YARATISH VA ULARDAN FOYDALANISH	PEDAGOGIKA	35
	СОЗДАНИЕ И ИСПОЛЬЗОВАНИЕ ЭЛЕКТРОННЫХ ОБРАЗОВАТЕЛЬНЫХ ПЛАТФОРМ ДЛЯ ДИСЦИПЛИН ПО ТЕОРИИ МУЗЫКИ		
	CREATION AND USE OF ELECTRONIC EDUCATIONAL PLATFORMS FOR MUSIC THEORY DISCIPLINES		

<i>ISMATOVA HALOVAT BAKTIYOROVNA</i>	O'SMIRLARDA DESTRUKTIV XULQ-ATVOR RIVOJLANISHIGA TA'SIR ETUVCHI PSIXOLOGIK OMILLAR VA PROFILAKTIK YONDASHUVLAR	PSIXOLOGIYA	40
	ПСИХОЛОГИЧЕСКИЕ ФАКТОРЫ, ВЛИЯЮЩИЕ НА РАЗВИТИЕ ДЕСТРУКТИВНОГО ПОВЕДЕНИЯ У ПОДРОСТКОВ, И ПРОФИЛАКТИЧЕСКИЕ ПОДХОДЫ		
	PSYCHOLOGICAL FACTORS INFLUENCING THE DEVELOPMENT OF DESTRUCTIVE BEHAVIOR IN ADOLESCENTS AND PREVENTIVE APPROACHES		
<i>KUSHAKOVA NODIRA ODILOVNA</i>	"J.D. SALINGERNING «THE CATCHER IN THE RYE» ROMANIDA «TA'LIM» KONSEPTUAL BIRLIGINING VERBALIZATSIYASI"	PEDAGOGIKA	46
	ВЕРБАЛИЗАЦИЯ КОНЦЕПТУАЛЬНОЙ ЕДИНИЦЫ «ОБРАЗОВАНИЕ» В РОМАНЕ ДЖ. Д. СЭЛИНДЖЕРА «НАД ПРОПАСТЬЮ ВО РЖИ»		
	ERBALIZATION OF THE CONCEPTUAL UNIT "EDUCATION" IN J.D. SALINGER'S NOVEL THE CATCHER IN THE RYE		
<i>O'KTAMOVA SHOHIDA ODILBEK QIZI</i>	O'SMIRLAR EMOTSIONAL HOLATINI EKSPERIMENTAL O'RGANISH	PSIXOLOGIYA	54
	ЭКСПЕРИМЕНТАЛЬНОЕ ИССЛЕДОВАНИЕ ЭМОЦИОНАЛЬНОГО СОСТОЯНИЯ ПОДРОСТКОВ		
	EXPERIMENTAL STUDY OF ADOLESCENTS' EMOTIONAL STATE		
<i>PANJIYEV QURBONNIYOZ BERDIYEVICH</i>	BO'LAJAK MUSIQA O'QITUVCHILARINING KASBIY KOMPETENTLIGINI RIVOJLANTIRISHDA ZAMONAVIY YONDASHUVLAR TAHLILI	PEDAGOGIKA	62
	АНАЛИЗ СОВРЕМЕННЫХ ПОДХОДОВ К РАЗВИТИЮ ПРОФЕССИОНАЛЬНОЙ КОМПЕТЕНТНОСТИ БУДУЩИХ УЧИТЕЛЕЙ МУЗЫКИ		
	ANALYSIS OF MODERN APPROACHES TO DEVELOPING THE PROFESSIONAL COMPETENCE OF FUTURE MUSIC TEACHERS		
<i>RAXIMBAYEVA GULYORA ULUGBEKOVNA</i>	TALABALARDA IJTIMOY IDENTIFIKATSIYA SHAKLLANISHIDA EMOTSIONAL INTELLEKTNING ROLI	PSIXOLOGIYA	68
	РОЛЬ ЭМОЦИОНАЛЬНОГО ИНТЕЛЛЕКТА В ФОРМИРОВАНИИ СОЦИАЛЬНОЙ ИДЕНТИФИКАЦИИ СТУДЕНТОВ		
	THE ROLE OF EMOTIONAL INTELLIGENCE IN THE FORMATION OF STUDENTS' SOCIAL IDENTIFICATION		
<i>RO'ZIMURODOV ILYOS AZAMAT O'GLI</i>	BO'LAJAK MUSIQA O'QITUVCHILARINING CHOLG'U IJROCHILIGI KOMPETENSIYASINI TAKOMILLASHTIRISHDA AFG'ON RUBOBIDAN FOYDALANISHNING PEDAGOGIK IMKONIYATLARI	PEDAGOGIKA	75
	ПЕДАГОГИЧЕСКИЕ ВОЗМОЖНОСТИ ИСПОЛЬЗОВАНИЯ АФГАНСКОГО РУБАБА В СОВЕРШЕНСТВОВАНИИ ИНСТРУМЕНТАЛЬНОЙ ИСПОЛНИТЕЛЬСКОЙ КОМПЕТЕНЦИИ БУДУЩИХ УЧИТЕЛЕЙ МУЗЫКИ		
	PEDAGOGICAL POSSIBILITIES OF USING THE AFGHAN RUBAB IN IMPROVING THE INSTRUMENTAL PERFORMANCE COMPETENCE OF FUTURE MUSIC TEACHERS		

<i>XUSANOVA NIGINA BAXTIYOR QIZI</i>	O'QITUVCHINING INNOVATION MADANIYATI PEDAGOGIK FAOLIYAT SAMARADORLIGINING MUHIM OMILI SIFATIDA	PEDAGOGIKA	81
	ИННОВАЦИОННАЯ КУЛЬТУРА ПЕДАГОГА КАК ВАЖНЫЙ ФАКТОР ЭФФЕКТИВНОСТИ ПЕДАГОГИЧЕСКОЙ ДЕЯТЕЛЬНОСТИ		
	THE INNOVATIVE CULTURE OF A TEACHER AS AN IMPORTANT FACTOR OF PEDAGOGICAL ACTIVITY EFFICIENCY		
<i>XUDDIEVA UMIIDA AMINJON KIZI</i>	BOSHLANG'ICH SINIF O'QUVCHILARINING MATEMATIK SAVODXONLIGINI SUN'IY INTELLEKT TECHNOLOGIYALARI ASOSIDA RIVOJLANTIRISH METODI-KASI	PEDAGOGIKA	91
	МЕТОДИКА РАЗВИТИЯ МАТЕМАТИЧЕСКОЙ ГРАМОТНОСТИ УЧАЩИХСЯ НАЧАЛЬНЫХ КЛАССОВ НА ОСНОВЕ ТЕХНОЛОГИЙ ИСКУССТВЕННОГО ИНТЕЛЛЕКТА		
	METHODOLOGY FOR DEVELOPING MATHEMATICAL LITERACY OF PRIMARY SCHOOL STUDENTS BASED ON ARTIFICIAL INTELLIGENCE TECHNOLOGIES		
<i>SUVONOVA LOBARXON ISLOM QIZI</i>	TALABALARDA PEDAGOGIK DIZAYN ASOSIDA TA'LIMYIY KOMPETENSIYALARINI RIVOJLANTIRISHNING PSIXOLOGIK XUSUSIYATLARI	PSIXOLOGIYA	96
	ПСИХОЛОГИЧЕСКИЕ ОСОБЕННОСТИ РАЗВИТИЯ ОБРАЗОВАТЕЛЬНЫХ КОМПЕТЕНЦИЙ СТУДЕНТОВ НА ОСНОВЕ ПЕДАГОГИЧЕСКОГО ДИЗАЙНА		
	PSYCHOLOGICAL FEATURES OF DEVELOPING STUDENTS' EDUCATIONAL COMPETENCIES BASED ON INSTRUCTIONAL DESIGN		
<i>XAYDAROV ADXAM FAYZULLAEVICH</i>	TA'LIM TIZIMIDA ZAMONAVIY AXBOROT TECHNOLOGIYALARIDAN FOYDALANISHNING O'ZIGA XOS XUSUSIYATLARI	PEDAGOGIKA	102
	ОСОБЕННОСТИ ИСПОЛЬЗОВАНИЯ СОВРЕМЕННЫХ ИНФОРМАЦИОННЫХ ТЕХНОЛОГИЙ В ОБРАЗОВАНИИ		
	FEATURES OF USING MODERN INFORMATION TECHNOLOGIES IN EDUCATION		
<i>AHMADOVA MAHBUBA SHAVKAT QIZI</i>	ALISHER NAVOIY ASARLARI ASOSIDA BOSHLANG'ICH SINIF O'QUVCHILARIDA BAG'RIKENGLIK VA O'ZARO HURMAT MADANIYATINI TARBIVYALASH	PEDAGOGIKA	107
	ВОСПИТАНИЕ ТОЛЕРАНТНОСТИ И КУЛЬТУРЫ ВЗАИМНОГО УВАЖЕНИЯ У УЧАЩИХСЯ НАЧАЛЬНЫХ КЛАССОВ НА ОСНОВЕ ПРОИЗВЕДЕНИЙ АЛИШЕРА НАВОИ		
	FOSTERING TOLERANCE AND A CULTURE OF MUTUAL RESPECT AMONG PRIMARY SCHOOL STUDENTS THROUGH THE WORKS OF ALISHER NAVOI		

<i>ALIMARDANOVA SITORA IKROM QIZI</i>	MAXSUS TA'LIM EHTIYOJIGA EGA BOLALARNI QO'LLABQUVVATLASHDA ZAMONAVIY TEKNOLOGIYALARNING O'RNI	PEDAGOGIKA	113
	РОЛЬ СОВРЕМЕННЫХ ТЕХНОЛОГИЙ В ПОДДЕРЖКЕ ДЕТЕЙ С ОСОБЫМИ ОБРАЗОВАТЕЛЬНЫМИ ПОТРЕБНОСТЯМИ		
	THE ROLE OF MODERN TECHNOLOGIES IN SUPPORTING CHILDREN WITH SPECIAL EDUCATIONAL NEEDS		
<i>АСЛАМКУЛОВА ПАРВИНА ЖАМШИД КИЗИ</i>	SHARQ FALSAFIY MEROSINING ZAMONAVIY ILMIY TADQIQOTLAR UCHUN METODOLOGIK AHAMIYATI	PEDAGOGIKA	121
	МЕТОДОЛОГИЧЕСКОЕ ЗНАЧЕНИЕ ФИЛОСОФСКОГО НАСЛЕДИЯ ВОСТОКА ДЛЯ СОВРЕМЕННЫХ НАУЧНЫХ ИССЛЕДОВАНИЙ		
	THE METHODOLOGICAL SIGNIFICANCE OF THE PHILOSOPHICAL HERITAGE OF THE EAST FOR CONTEMPORARY SCIENTIFIC RESEARCH		
<i>MUXAMEDOV FERUZ TO'LQINJONOVICH</i>	BO'LAJAK MUSIQA PEDAGOGLARIDA KREATIV FIKRLASHNI RIVOJLANTIRISHNING PSIXOLOGIK OMILLARI	PSIXOLOGIYA	128
	ПСИХОЛОГИЧЕСКИЕ ФАКТОРЫ РАЗВИТИЯ КРЕАТИВНОГО МЫШЛЕНИЯ У БУДУЩИХ ПЕДАГОГОВ МУЗЫКИ		
	PSYCHOLOGICAL FACTORS IN THE DEVELOPMENT OF CREATIVE THINKING AMONG FUTURE MUSIC EDUCATORS		
<i>MASHARIPOVA SAIDA RAHIMOVNA</i>	YOSH OILALARDA EMOTSIONAL KOMPETENTLIKNI SHAKLLANTIRISHNING PSIXOLOGIK DETERMINANTLARI	PSIXOLOGIYA	134
	ПСИХОЛОГИЧЕСКИЕ ДЕТЕРМИНАНТЫ ФОРМИРОВАНИЯ ЭМОЦИОНАЛЬНОЙ КОМПЕТЕНТНОСТИ В МОЛОДЫХ СЕМЬЯХ		
	PSYCHOLOGICAL DETERMINANTS OF THE FORMATION OF EMOTIONAL COMPETENCE IN YOUNG FAMILIES		
<i>XOLOV DILSHOD MURODILLO O'G'LI, SUNNATOVA O'G'LOY KAMARDIN QIZI, SUNNATOVA O'G'LOY KAMARDIN QIZI</i>	O'QUVCHILARNING BILIM, KO'NIKMA, MALAKA VA KOMPETENSIYALARINI VAHOLASHNING NAZARIY ASOSLARI	PEDAGOGIKA	139
	ТЕОРЕТИЧЕСКИЕ ОСНОВЫ ОЦЕНКИ ЗНАНИЙ, УМЕНИЙ, НАВЫКОВ И КОМПЕТЕНЦИЙ ОБУЧАЮЩИХСЯ		
	THEORETICAL FOUNDATIONS OF ASSESSING STUDENT		
<i>HAMROYEVA XOLIDA RIZOQUL QIZI</i>	BOSHLANG'ICH SINIF O'QUVCHILARINING NUTQ FAOLIYATINI RIVOJLANTIRISHDA VIZUAL VOSITALAR VA O'YIN TEKNOLOGIYALARIDAN FOYDALANISH METODIKASI	PEDAGOGIKA	145
	МЕТОДИКА ИСПОЛЬЗОВАНИЯ ВИЗУАЛЬНЫХ СРЕДСТВ И ИГРОВЫХ ТЕХНОЛОГИЙ В РАЗВИТИИ РЕЧЕВОЙ ДЕЯТЕЛЬНОСТИ УЧАЩИХСЯ НАЧАЛЬНЫХ КЛАССОВ		
	METHODOLOGY FOR USING VISUAL AIDS AND GAME-BASED TECHNOLOGIES TO DEVELOP THE SPEECH ACTIVITY OF PRIMARY SCHOOL STUDENTS		

<i>ISMATOVA SAYYORA SOBIR QIZI</i>	TADBIRKORLIK KOMPITENSIYASINING ASOSIY TUSHUNCHALARI VA UNING MAZMUN MOHIYATI	PEDAGOGIKA	152
	ОСНОВНЫЕ ПОНЯТИЯ ПРЕДПРИНИМАТЕЛЬСКОЙ КОМПЕТЕНТНОСТИ И ЕЁ СОДЕРЖАТЕЛЬНАЯ СУЩНОСТЬ		
	BASIC CONCEPTS OF ENTREPRENEURIAL COMPETENCE AND ITS CONTENT-RELATED ESSENCE		
<i>NORQULOVA SEVARA O'ROZ QIZI</i>	TALABALARNING INTELLEKTUAL VA KOGNITIV FAOLIGINI TRENINGLAR ORQALI RIVOJLANTIRISHNING PSIXOLOGIK MEKANIZMLARI	PSIXOLOGIYA	158
	ПСИХОЛОГИЧЕСКИЕ МЕХАНИЗМЫ РАЗВИТИЯ ИНТЕЛЛЕКТУАЛЬНОЙ И КОГНИТИВНОЙ АКТИВНОСТИ СТУДЕНТОВ ПОСРЕДСТВОМ ТРЕНИНГОВ		
	PSYCHOLOGICAL MECHANISMS FOR DEVELOPING STUDENTS' INTELLECTUAL AND COGNITIVE ACTIVITY THROUGH TRAINING PROGRAMS		
<i>ABDURAZZAQOV O'KTAM ABDUQAYUMOVICH</i>	BOSHLANG'ICH SINIF O'QUVCHILARIDA IJODIY LAYOQATNI SHAKLLANTIRISHNING DIDAKTIK IMKONIYATLARI	PEDAGOGIKA	163
	ДИДАКТИЧЕСКИЕ ВОЗМОЖНОСТИ ФОРМИРОВАНИЯ ТВОРЧЕСКИХ КОМПЕТЕНЦИЙ У МЛАДШИХ ШКОЛЬНИКОВ		
	DIDACTIC POSSIBILITIES OF FORMING CREATIVE COMPETENCES IN PRIMARY STUDENTS		
<i>SODIQOVA GULBARNO ODILJON QIZI</i>	QIZ TALABALARNING IJTIMOY FAOLIGINI RIVOJLANTIRISHDA PSIXOLOGIK OMILLAR TAHLILI	PSIXOLOGIYA	169
	АНАЛИЗ ПСИХОЛОГИЧЕСКИХ ФАКТОРОВ РАЗВИТИЯ СОЦИАЛЬНОЙ АКТИВНОСТИ СТУДЕНТОК		
	ANALYSIS OF PSYCHOLOGICAL FACTORS IN THE DEVELOPMENT OF FEMALE STUDENTS' SOCIAL ACTIVITY		
<i>TESHABOEV AKRAMJON YULDASHEVICH</i>	BO'LAJAK O'QITUVCHILARNING KASBIY KOMPETENSIYALARINI SHAKLLANTIRISHDA DIAGNOSTIK YONDASHUVNING PEDAGOGIK ASOSLARI	PEDAGOGIKA	173
	ПЕДАГОГИЧЕСКИЕ ОСНОВЫ ДИАГНОСТИЧЕСКОГО ПОДХОДА К ФОРМИРОВАНИЮ ПРОФЕССИОНАЛЬНЫХ КОМПЕТЕНЦИЙ БУДУЩИХ УЧИТЕЛЕЙ		
	PEDAGOGICAL FOUNDATIONS OF THE DIAGNOSTIC APPROACH TO DEVELOPING THE PROFESSIONAL COMPETENCIES OF FUTURE TEACHERS		
<i>XAMRAYEVA FIRUZA AZIMOVNA</i>	GADJETLARDAN FOYDALANISHNING BOLALAR DIQQAT, XOTIRA VA EMOTSIONAL REAKSIYALARIGA TA'SIRI	PSIXOLOGIYA	178
	ВЛИЯНИЕ ИСПОЛЬЗОВАНИЯ ГАДЖЕТОВ НА ВНИМАНИЕ, ПАМЯТЬ И ЭМОЦИОНАЛЬНЫЕ РЕАКЦИИ ДЕТЕЙ		
	THE IMPACT OF GADGET USE ON CHILDREN'S ATTENTION, MEMORY, AND EMOTIONAL REACTIONS		

<i>TOHIROVA FERUZA</i>	BO'LAJAK TIBBIYOT XODIMLARIDA KASBIY IDENTIKLIKNI RIVOJLANTIRISHNING PSIXOLOGIK-PEDAGOGIK MEKANIZMLARI	PSIXOLOGIYA	186
	ПСИХОЛОГО-ПЕДАГОГИЧЕСКИЕ МЕХАНИЗМЫ РАЗВИТИЯ ПРОФЕССИОНАЛЬНОЙ ИДЕНТИЧНОСТИ У БУДУЩИХ МЕДИЦИНСКИХ РАБОТНИКОВ		
	PSYCHOLOGICAL AND PEDAGOGICAL MECHANISMS FOR DEVELOPING PROFESSIONAL IDENTITY IN FUTURE HEALTHCARE PROFESSIONALS		
<i>JO'RAYEV HUSEN IBOD O'G'LI</i>	TAEKWONDO MASHG'ULOTLARIDA RAQAMLI TEXNOLOGIYALARDAN FOYDALANISH ORQALI SPORTCHILAR TEXNIK-TAKTIK TAYYORGARLIGINI TAKOMILLASHTIRISH	PEDAGOGIKA	194
	СОВЕРШЕНСТВОВАНИЕ ТЕХНИКО-ТАКТИЧЕСКОЙ ПОДГОТОВКИ ТХЭКВОНДИСТОВ ПОСРЕДСТВОМ ИСПОЛЬЗОВАНИЯ ЦИФРОВЫХ ТЕХНОЛОГИЙ В ТРЕНИРОВОЧНОМ ПРОЦЕССЕ		
	IMPROVING THE TECHNICAL AND TACTICAL PREPARATION OF TAEKWONDO ATHLETES THROUGH THE USE OF DIGITAL TECHNOLOGIES IN TRAINING		
<i>AXMATQULOVA MAXFUZA SHUHRAT QIZI</i>	МАКТАБГАЧА ТА'ЛИМ YO'NALISHI TALABALARIDA LEKSIK KOMPETENSIYANI RIVOJLANTIRISHNING LINGVO-KOGNITIV XUSUSIYATLARI	PEDAGOGIKA	203
	ЛИНГВОКОГНИТИВНЫЕ ОСОБЕННОСТИ РАЗВИТИЯ ЛЕКСИЧЕСКОЙ КОМПЕТЕНЦИИ У СТУДЕНТОВ НАПРАВЛЕНИЯ ДОШКОЛЬНОГО ОБРАЗОВАНИЯ		
	LINGUO-COGNITIVE FEATURES OF DEVELOPING LEXICAL COMPETENCE IN PRESCHOOL EDUCATION STUDENTS		
<i>USMONOV RAHIM RAXMONALI O'G'LI</i>	DEFFENBACHERNING DRIVING ANGER SCALE METODI ASOSIDA HAYDOVCHILARDAGI G'AZABLANISH XUSUSIYATLARINI HAYDOVCHILIK TAJRIBASI KESIMIDA O'RGANISH	PSIXOLOGIYA	209
	ИЗУЧЕНИЕ ОСОБЕННОСТЕЙ ПРОЯВЛЕНИЯ ГНЕВА У ВОДИТЕЛЕЙ В ЗАВИСИМОСТИ ОТ ВОДИТЕЛЬСКОГО СТАЖА НА ОСНОВЕ МЕТОДИКИ ДЕФФЕНБАХЕРА «DRIVING ANGER SCALE»		
	A STUDY OF DRIVERS' ANGER CHARACTERISTICS BASED ON DRIVING EXPERIENCE USING DEFFENBACHER'S "DRIVING ANGER SCALE" METHOD		

<i>XUDDIYEVA UMIDA AMINJON QIZI</i>	BOSHLANG'ICH SINIF O'QUVCHILARINING MATEMATIK SAVODXONLIGINI RIVOJLANTIRISHDA SUN'YI INTELLEKT TEXNOLOGIYALARIDAN FOYDALANISH	PEDAGOGIKA	215
	ИСПОЛЬЗОВАНИЕ ТЕХНОЛОГИЙ ИСКУССТВЕННОГО ИНТЕЛЛЕКТА ДЛЯ РАЗВИТИЯ МАТЕМАТИЧЕСКОЙ ГРАМОТНОСТИ УЧАЩИХСЯ НАЧАЛЬНЫХ КЛАССОВ		
	THE USE OF ARTIFICIAL INTELLIGENCE TECHNOLOGIES TO DEVELOP MATHEMATICAL LITERACY AMONG PRIMARY SCHOOL STUDENTS		
<i>NEMATOV SOHIB TESHAYEVICH</i>	JISMONIY MASHQLAR JARAYONIDA PSIXOLOGIK BARQARORLIK VA CHIDAMLILIK O'RTASIDAGI BOG'LIQLIK	PSIXOLOGIYA	221
	ВЗАИМОСВЯЗЬ ПСИХОЛОГИЧЕСКОЙ УСТОЙЧИВОСТИ И ВЫНОСЛИВОСТИ В ПРОЦЕССЕ ВЫПОЛНЕНИЯ ФИЗИЧЕСКИХ УПРАЖНЕНИЙ		
	THE RELATIONSHIP BETWEEN PSYCHOLOGICAL RESILIENCE AND ENDURANCE DURING PHYSICAL EXERCISE		
<i>RASHIDOV ABDURASHID MURODULLAYEVICH</i>	HARBIY XIZMATGA PSIXOFIZIOLOGIK TAYYORLASH JARAYONIDA RAQAMLASHTIRISHNING AHAMIYATI VA SAMARADORLIGI	PSIXOLOGIYA	228
	ЗНАЧЕНИЕ И ЭФФЕКТИВНОСТЬ ЦИФРОВИЗАЦИИ В ПРОЦЕССЕ ПСИХОФИЗИОЛОГИЧЕСКОЙ ПОДГОТОВКИ К ВОЕННОЙ СЛУЖБЕ		
	THE IMPORTANCE AND EFFECTIVENESS OF DIGITALIZATION IN THE PROCESS OF PSYCHOPHYSIOLOGICAL PREPARATION FOR MILITARY SERVICE		
<i>ALIMARDANOVA SITORA IKROM QIZI</i>	MAXSUS TA'LIM HATIYOJIGA EGA BOLALARNI QO'LLAB QUVVATLASHDA ZAMONAVIY TEXNOLOGIYALARINING O'RNI	PEDAGOGIKA	232
	РОЛЬ СОВРЕМЕННЫХ ТЕХНОЛОГИЙ В ПОДДЕРЖКЕ ДЕТЕЙ С ОСОБЫМИ ОБРАЗОВАТЕЛЬНЫМИ ПОТРЕБНОСТЯМИ		
	THE ROLE OF MODERN TECHNOLOGIES IN SUPPORTING CHILDREN WITH SPECIAL EDUCATIONAL NEEDS		
<i>ASKAROVA ZEBINISO AKBAR QIZI</i>	FILOLOGIYA YO'NALISHI TALABALARINING KASBIY KOMPETENSIYALARINI RIVOJLANTIRISHDA RAQAMLI TA'LIM VOSITALARINING O'RNI	PEDAGOGIKA	240
	РОЛЬ ЦИФРОВЫХ ОБРАЗОВАТЕЛЬНЫХ СРЕДСТВ В РАЗВИТИИ ПРОФЕССИОНАЛЬНЫХ КОМПЕТЕНЦИЙ СТУДЕНТОВ ФИЛОЛОГИЧЕСКИХ НАПРАВЛЕНИЙ		
	THE ROLE OF DIGITAL EDUCATIONAL TOOLS IN DEVELOPING THE PROFESSIONAL COMPETENCIES OF PHILOLOGY STUDENTS		

<i>AVEZOV DAVRONBEK SOBUROVICH</i>	BO'LAJAK BOSHLANG'CH SINFLAR O'QITUVCHILARINING AXBOROT KOMMUNIKATSIYA VOSITALARIDAN FOYDALANISHNING DIDAKTIK IMKONIYATLARI	PEDAGOGIKA	246
	ДИДАКТИЧЕСКИЕ ВОЗМОЖНОСТИ ИСПОЛЬЗОВАНИЯ ИНФОРМАЦИОННО-КОММУНИКАЦИОННЫХ СРЕДСТВ БУДУЩИМ УЧИТЕЛЯМ НАЧАЛЬНЫХ КЛАССОВ		
	DIDACTIC OPPORTUNITIES FOR FUTURE PRIMARY SCHOOL TEACHERS IN USING INFORMATION AND COMMUNICATION TOOLS		
<i>AXMEDOVA NILUFAR ILHOMBOY QIZI</i>	NOGIRONLIGI BOR XOTIN-QIZLARNI IJTIMOY HIMOYA QILISH TIZIMINI TAKOMILLASHTIRISH YO'LLARI	PEDAGOGIKA	252
	ПУТИ СОВЕРШЕНСТВОВАНИЯ СИСТЕМЫ СОЦИАЛЬНОЙ ЗАЩИТЫ ЖЕНЩИН С ИНВАЛИДНОСТЬЮ		
	WAYS TO IMPROVE THE SOCIAL PROTECTION SYSTEM FOR WOMEN WITH DISABILITIES		
<i>IZZATOV SHERZOD SAMAD O'GLI</i>	SUN'YI INTELLEKT VA RAQAMLI MUHIT SHAROITIDA YOSHLARNING PSIXOLOGIK SALOMATLIGINI TA'MINLASH MEKANIZMLARI	PSIXOLOGIYA	257
	МЕХАНИЗМЫ ОБЕСПЕЧЕНИЯ ПСИХОЛОГИЧЕСКОГО ЗДОРОВЬЯ МОЛОДЕЖИ В УСЛОВИЯХ ИСКУССТВЕННОГО ИНТЕЛЛЕКТА И ЦИФРОВОЙ СРЕДЫ		
	MECHANISMS FOR ENSURING THE PSYCHOLOGICAL WELL-BEING OF YOUNG PEOPLE IN THE CONTEXT OF ARTIFICIAL INTELLIGENCE AND THE DIGITAL ENVIRONMENT		
<i>MURATOVA SABOXAT CHORIYEVNA</i>	O'ZBEK XALQ URF-ODATLARINING O'QUVCHILAR TARBIVASIDAGI O'RNI VA AHAMIYATI	PEDAGOGIKA	262
	РОЛЬ И ЗНАЧЕНИЕ УЗБЕКСКИХ НАРОДНЫХ ОБЫЧАДОВ В ВОСПИТАНИИ УЧАЩИХСЯ		
	THE ROLE AND SIGNIFICANCE OF UZBEK FOLK TRADITIONS IN THE EDUCATION OF STUDENTS		
<i>NIYAZOVA NILUFAR FARXADOVNA</i>	ONKOLOGIK BEMORLARDA PSIXOLOGIK MOSLASHUVNI RIVOJLANTIRISHNING IJTIMOY-PSIXOLOGIK MEKANIZMLARI	PSIXOLOGIYA	267
	СОЦИАЛЬНО-ПСИХОЛОГИЧЕСКИЕ МЕХАНИЗМЫ РАЗВИТИЯ ПСИХОЛОГИЧЕСКОЙ АДАПТАЦИИ У ОНКОЛОГИЧЕСКИХ ПАЦИЕНТОВ		
	SOCIO-PSYCHOLOGICAL MECHANISMS FOR ENHANCING PSYCHOLOGICAL ADAPTATION IN ONCOLOGY PATIENTS		
<i>RAHIMOVA NAZOKATXON KASIMDJONOVNA</i>	TALABALARDA IJTIMOY YETUKLIKNI SHAKLLANTIRISH ORQALI TA'LIM SIFATINI OSHIRISHNING PSIXOLOGIK MEKANIZMLARI	PSIXOLOGIYA	276
	ПСИХОЛОГИЧЕСКИЕ МЕХАНИЗМЫ ПОВЫШЕНИЯ КАЧЕСТВА ОБРАЗОВАНИЯ ПОСРЕДСТВОМ ФОРМИРОВАНИЯ СОЦИАЛЬНОЙ ЗРЕЛОСТИ СТУДЕНТОВ		
	PSYCHOLOGICAL MECHANISMS FOR IMPROVING THE QUALITY OF EDUCATION THROUGH THE DEVELOPMENT OF STUDENTS' SOCIAL MATURITY		

<i>SAFAROVA SARVINOZ</i>	KOMMUNIKATIV MASHQLAR ASOSIDA YUQORI SINIF O'QUVCHILARINING LEKSIK KOMPETENSIYASINI DIAGNOSTIKA QILISH VA BAHOLASH MEZONLARI	PEDAGOGIKA	283
	КРИТЕРИИ ДИАГНОСТИКИ И ОЦЕНКИ ЛЕКСИЧЕСКОЙ КОМПЕТЕНЦИИ УЧАЩИХСЯ СТАРШИХ КЛАССОВ НА ОСНОВЕ КОММУНИКАТИВНЫХ УПРАЖНЕНИЙ		
	CRITERIA FOR DIAGNOSING AND ASSESSING THE LEXICAL COMPETENCE OF SENIOR SECONDARY SCHOOL STUDENTS BASED ON COMMUNICATIVE EXERCISES		
<i>SAYIROVA DILOBAR RAXIMOVNA</i>	OLYI TA'LIMDA MUSTAQIL ISHLASHGA O'RGATUVCHI TOPSHIRIQLAR: DUNYO VA O'ZBEKISTON TAJRIBASI	PEDAGOGIKA	289
	ЗАДАНИЯ ОБУЧАЮЩИЕ САМОСТОЯТЕЛЬНОЙ РАБОТЕ В ВЫСШЕМ ОБРАЗОВАНИИ: МИРОВОЙ И УЗБЕКСКИЙ ОПЫТ		
	TEACHING ASSIGNMENTS THAT FOSTER INDEPENDENT LEARNING IN HIGHER EDUCATION: GLOBAL AND UZBEK EXPERIENCE		
<i>TOIROVA MUNAVVAR MURODULLAYEVNA</i>	TA'LIM JARAYONIDA O'QUVCHILARDA MILLIY QADRIYATLAR ASOSIDA IDENTIKLIKNI RIVOJLANTIRISH MEKANIZMLARI	PEDAGOGIKA	294
	МЕХАНИЗМЫ РАЗВИТИЯ ИДЕНТИЧНОСТИ УЧАЩИХСЯ НА ОСНОВЕ НАЦИОНАЛЬНЫХ ЦЕННОСТЕЙ В ОБРАЗОВАТЕЛЬНОМ ПРОЦЕССЕ		
	MECHANISMS FOR DEVELOPING STUDENTS' IDENTITY BASED ON NATIONAL VALUES IN THE EDUCATIONAL PROCESS		
<i>XOMUDJONOVA FERUZA KOMILJON QIZI</i>	MURAKKAB YUKLAMALARNI HISOBGA OLGAN HOLDA 15-16 YOSHDAGI SPORTCHILARNING MAXSUS TAYYORGARLIGINI TAKOMILLASHTIRISH VA ANIQLASH	PEDAGOGIKA	302
	СОВЕРШЕНСТВОВАНИЕ И ОПРЕДЕЛЕНИЕ СПЕЦИАЛЬНОЙ ПОДГОТОВЛЕННОСТИ СПОРТСМЕНОВ 15-16 ЛЕТ С УЧЕТОМ СЛОЖНЫХ НАГРУЗОК		
	IMPROVING AND ASSESSING THE SPECIAL PREPAREDNESS OF 15-16-YEAR OLD ATHLETES TAKING INTO ACCOUNT COMPLEX TRAINING LOADS		



Alimardanova Sitara Ikrom qizi,

Termiz davlat pedagogika instituti tayanch doktoranti

E-mail: alimardanova92@gmail.com

Orcid ID: 0009-0001-5724-3435

MAXSUS TA'LIM EHTIYOJIGA EGA BOLALARNI QO'LLAB- QUVVATLASHDA ZAMONAVIY TEXNOLOGIYALARNING O'RNI

Annotatsiya. Mazkur maqolada maxsus ta'lim ehtiyojiga ega bolalarni pedagogik, psixologik va ijtimoiy jihatdan qo'llab-quvvatlashda zamonaviy texnologiyalardan foydalanishning ilmiy-amaliy asoslari tahlil qilingan. Tadqiqotning asosiy maqsadi assistiv texnologiyalar, raqamli ta'lim platformalari, mobil ilovalar, sun'iy intellekt vositalari, vizual kommunikatsiya dasturlari hamda moslashtirilgan elektron resurslarning bolalarning ta'limiy faolligi, mustaqil topshiriq bajarishi, kommunikativ faolligi va ijtimoiy moslashuviga ta'sirini aniqlashdan iborat. Tadqiqotda 8–12 yosh oralig'idagi 90 nafar maxsus ta'lim ehtiyojiga ega bola ishtirok etdi. Respondentlar tajriba va nazorat guruhlariga ajratildi. Tajriba guruhida 12 hafta davomida zamonaviy texnologiyalarga asoslangan korreksion-pedagogik mashg'ulotlar tashkil etildi. Natijalarni aniqlashda pedagogik kuzatuv, suhbat, topshiriqlarni bajarish monitoringi, ekspert baholash va mualliflik diagnostik kartasidan foydalanildi.

Kalit so'zlar: maxsus ta'lim ehtiyojlari, inklyuziv ta'lim, assistiv texnologiyalar, raqamli ta'lim, sun'iy intellekt, moslashtirilgan ta'lim, kommunikativ faollik, ijtimoiy moslashuv, pedagogik qo'llab-quvvatlash.

РОЛЬ СОВРЕМЕННЫХ ТЕХНОЛОГИЙ В ПОДДЕРЖКЕ ДЕТЕЙ С ОСОБЫМИ ОБРАЗОВАТЕЛЬНЫМИ ПОТРЕБНОСТЯМИ

Аннотация. В данной статье проанализированы научно-практические основы применения современных технологий в педагогической, психологической и социальной поддержке детей с особыми образовательными потребностями. Основная цель исследования заключается в определении влияния ассистивных технологий, цифровых образовательных платформ, мобильных приложений, инструментов искусственного интеллекта, программ визуальной коммуникации и адаптированных электронных ресурсов на учебную активность, самостоятельное выполнение заданий, коммуникативную активность и социальную адаптацию детей. В исследовании приняли участие 90 детей с особыми образовательными потребностями в возрасте от 8 до 12 лет. Участники были разделены на экспериментальную и контрольную группы. В экспериментальной группе в течение 12 недель проводились коррекционно-педагогические занятия с применением современных технологий. Для оценки результатов использовались педагогическое наблюдение, беседа, мониторинг выполнения заданий, экспертная оценка и авторская диагностическая карта.

Ключевые слова: особые образовательные потребности, инклюзивное образование, ассистивные технологии, цифровое образование, искусственный интеллект, адаптированное обучение, коммуникативная активность, социальная адаптация, педагогическая поддержка.

THE ROLE OF MODERN TECHNOLOGIES IN SUPPORTING CHILDREN WITH SPECIAL EDUCATIONAL NEEDS

Abstract. This article analyzes the scientific and practical foundations of using modern technologies in the pedagogical, psychological, and social support of children with special educational needs. The primary purpose of the study is to determine the effects of assistive technologies, digital learning platforms, mobile applications, artificial intelligence tools, visual



communication programs, and adapted electronic resources on children's learning engagement, independent task performance, communication activity, and social adaptation. The study involved 90 children with special educational needs aged 8–12. The participants were divided into experimental and control groups. A technology-enhanced correctional and pedagogical program was implemented in the experimental group for 12 weeks. Pedagogical observation, interviews, task-performance monitoring, expert assessment, and an author-designed diagnostic checklist were used to evaluate the outcomes.

Key words: special educational needs, inclusive education, assistive technologies, digital education, artificial intelligence, adapted learning, communication activity, social adaptation, pedagogical support.

Kirish. Zamonaviy ta'lim tizimining ustuvor vazifalaridan biri har bir bolaning jismoniy, psixologik, intellektual va ijtimoiy imkoniyatlarini hisobga olgan holda sifatli ta'lim olish huquqini ta'minlashdan iborat. Ushbu vazifaning amalga oshirilishi maxsus ta'lim ehtiyojiga ega bolalar uchun to'siqlarsiz, moslashuvchan va individual ta'lim muhitini shakllantirishni talab etadi. Bunday bolalarning ta'lim jarayonida to'laqonli ishtirok etishi faqatgina an'anaviy pedagogik metodlardan foydalanish bilan cheklanib qolmasdan, zamonaviy raqamli va assistiv texnologiyalarni tizimli ravishda qo'llashni ham nazarda tutadi.

Maxsus ta'lim ehtiyoji bolaning bilim olish, axborotni qabul qilish, qayta ishlash, muloqot qilish, harakatlanish, yozish, o'qish yoki ijtimoiy munosabatlarga kirishishida qo'shimcha pedagogik va texnologik yordamga ehtiyoj mavjudligini anglatadi. Bunday ehtiyojlar ko'rish, eshitish, nutq, tayanch-harakat, intellektual rivojlanish, autistik spektr, diqqat va xulq-atvor bilan bog'liq o'ziga xosliklar natijasida yuzaga kelishi mumkin. Shu sababli maxsus ta'lim ehtiyojiga ega bolalarni qo'llab-quvvatlashda bir xil yondashuvdan foydalanish samarali natija bermaydi. Ta'lim vositalari har bir bolaning individual funksional imkoniyatlariga moslashtirilishi zarur.

O'zbekiston Respublikasining "Ta'lim to'g'risida"gi Qonunida jismoniy, aqliy, sensor yoki ruhiy nuqsonlari bo'lgan bolalarning ta'lim olish huquqlarini ta'minlash, ular uchun zarur pedagogik shart-sharoitlarni yaratish hamda inklyuziv ta'limni rivojlantirish vazifalari belgilangan [1]. Alohida ta'lim ehtiyojlari bo'lgan bolalarga ta'lim-tarbiya berish tizimini takomillashtirishga qaratilgan davlat dasturlarida inklyuziv sinflarni tashkil etish, pedagog kadrlarning kasbiy kompetentligini oshirish, maxsus o'quv vositalari va texnologiyalarini joriy etishga alohida e'tibor qaratilgan [2].

Birlashgan Millatlar Tashkilotining Nogironlar huquqlari to'g'risidagi konvensiyasida nogironligi bo'lgan shaxslarning umumiy ta'lim tizimidan chetlashtirilmasligi, ular uchun oqilona moslashtirishlar va individual yordam vositalari taqdim etilishi zarurligi belgilangan [3]. Jahon sog'liqni saqlash tashkiloti va UNICEF tomonidan tayyorlangan global hisobotda assistiv texnologiyalar bolalarning mustaqilligi, muloqoti, ta'lim olishi va jamiyat hayotidagi ishtirokini ta'minlovchi muhim omil sifatida baholangan [4].

Zamonaviy texnologiyalar maxsus ta'lim ehtiyojiga ega bolalarning mavjud cheklovlarini qoplash bilangina cheklanmaydi. Ular bolaning saqlangan imkoniyatlarini faollashtiradi, o'zlashtirish sur'atiga mos ta'lim olishiga yordam beradi, muvaffaqiyatsizlikdan kelib chiqadigan psixologik zo'riqishni kamaytiradi va ta'lim jarayoniga motivatsiyani kuchaytiradi. Matnni ovozga aylantiruvchi dasturlar, elektron lupa, subtitr, piktogramma, alternativ kommunikatsiya vositalari, adaptiv klaviatura, sensor ekran, ovozli boshqaruv, interaktiv mashqlar va sun'iy intellekt asosidagi individual tavsiyalar shular jumlasidandir.

Shu nuqtayi nazardan, maxsus ta'lim ehtiyojiga ega bolalarni zamonaviy texnologiyalar orqali qo'llab-quvvatlashning pedagogik mexanizmlarini aniqlash, ularning samaradorligini empirik jihatdan baholash va ta'lim amaliyotiga mos tavsiyalar ishlab chiqish dolzarb ilmiy-amaliy vazifa hisoblanadi.

Mavzuning dolzarbligi. Maxsus ta'lim ehtiyojiga ega bolalarni sifatli ta'lim bilan qamrab olish zamonaviy jamiyatning insonparvarlik, ijtimoiy adolat va teng imkoniyatlar tamoyillariga asoslangan rivojlanish ko'rsatkichlaridan biridir. Inklyuziv ta'lim bolaning faqat maktabda



jismonan mavjud bo'lishini emas, balki uning o'quv jarayonida faol qatnashishi, tengdoshlari bilan muloqot qilishi, o'z fikrini ifodalashi va mustaqil topshiriqlarni bajarishini nazarda tutadi.

Amaliyotda maxsus ta'lim ehtiyojiga ega bolalar o'quv materialining murakkabligi, axborotning faqat bitta shaklda taqdim etilishi, sinfdagi yuqori ish sur'ati, moslashtirilmagan jihozlar, kommunikativ to'siqlar va pedagoglarning yetarli metodik tayyorgarlikka ega emasligi sababli turli qiyinchiliklarga duch keladilar. Bunday vaziyatlarda bola o'z imkoniyatlarini to'liq namoyon qila olmaydi, ta'limiy motivatsiyasi pasayadi va ijtimoiy izolyatsiya xavfi kuchayadi.

Zamonaviy texnologiyalar o'quv materiallarini matn, audio, video, animatsiya, piktogramma va taktil shakllarda taqdim etish imkonini beradi. Bu esa axborotni qabul qilishning turli kanallarini faollashtirib, bolaning individual o'rganish uslubiga mos ta'lim muhitini yaratadi. Masalan, ko'rishida qiyinchilik mavjud bo'lgan bola uchun matnni ovozlashtirish dasturi, eshitishida qiyinchilik mavjud bo'lgan bola uchun subtitr va vizual ko'rsatmalar, nutqiy muloqotida cheklov mavjud bo'lgan bola uchun piktografik kommunikatsiya tizimi samarali vosita bo'lishi mumkin.

Mavzuning dolzarbligi sun'iy intellekt vositalarining ta'limga keng kirib kelishi bilan ham bog'liq. Sun'iy intellekt bolaning topshiriqlarni bajarish jarayonidagi xatolarini aniqlash, murakkablik darajasini avtomatik moslashtirish, takrorlash uchun zarur materiallarni tavsiya etish va pedagogga individual rivojlanish dinamikasi haqida ma'lumot berish imkoniyatiga ega. Biroq bunday vositalardan foydalanishda shaxsiy ma'lumotlarni himoya qilish, algoritmik xatolar, raqamli tengsizlik va texnologiyaga haddan tashqari bog'lanish xavflari ham hisobga olinishi lozim.

Mazkur tadqiqot zamonaviy texnologiyalarning maxsus ta'lim ehtiyojiga ega bolalarning ta'limiy faolligi, mustaqil faoliyati, kommunikativ imkoniyatlari va ijtimoiy moslashuviga ko'rsatadigan ta'sirini empirik jihatdan o'rganishga qaratilgan. Tadqiqot natijalari inklyuziv ta'lim muassasalarida texnologik vositalarni maqsadli va ilmiy asosda tanlashga xizmat qiladi.

Mavzuning o'rganilganlik darajasi. Maxsus ta'lim ehtiyojiga ega bolalarni zamonaviy texnologiyalar orqali qo'llab-quvvatlash muammosi maxsus pedagogika, inklyuziv ta'lim, rehabilitatsiya, psixologiya va axborot texnologiyalari kesishgan nuqtada o'rganilmoqda.

UNESCO tomonidan inklyuziv ta'lim har bir o'quvchining ehtiyojlari va imkoniyatlariga javob beruvchi ta'lim tizimini yaratishga yo'naltirilgan uzluksiz jarayon sifatida tavsiflanadi. Mazkur yondashuvga ko'ra, muammo bolada emas, balki uning ta'lim jarayonidagi ishtirokini cheklovchi tashkiliy, ijtimoiy, pedagogik va texnologik to'siqlarda namoyon bo'ladi [5].

Jahon sog'liqni saqlash tashkiloti hamda UNICEF tadqiqotlarida assistiv texnologiyalar shaxsning funksional imkoniyatlarini kengaytiruvchi, mustaqilligini oshiruvchi va jamiyatdagi ishtirokini ta'minlovchi mahsulotlar, xizmatlar va tizimlar majmui sifatida izohlanadi [4]. Bunday texnologiyalar tarkibiga kommunikatsiya vositalari, moslashtirilgan kompyuter qurilmalari, ekran o'qish dasturlari, eshitish vositalari, mobil ilovalar, harakatni qo'llab-quvvatlovchi qurilmalar va maxsus dasturiy ta'minot kiradi.

D. Rouz va A. Meyer tomonidan ishlab chiqilgan ta'limning universal dizayni konsepsiyasi o'quv materiallarini o'zlashtirishning bir nechta shakllarini taklif etishni nazarda tutadi. Universal dizaynning asosiy tamoyillari axborotni turli shakllarda taqdim etish, o'quvchiga bilimni turli usullarda namoyon qilish imkonini berish va o'quv motivatsiyasini qo'llab-quvvatlashdan iborat [6]. Ushbu konsepsiya maxsus ta'lim ehtiyojiga ega bolalar uchun alohida material yaratishdan ko'ra, dastlabdan barcha bolalar foydalanishi mumkin bo'lgan moslashuvchan ta'lim muhitini loyihalashni ilgari suradi.

L. Florian va K. Black-Hawkins inklyuziv pedagogikada o'quvchilar o'rtasidagi farqlar muammo emas, balki ta'lim jarayonini takomillashtirish manbai sifatida qabul qilinishi zarurligini ta'kidlaydi [7]. Mualliflarning fikricha, o'qituvchi ayrim bolalar uchun alohida faoliyat tashkil etish bilan cheklanmasdan, umumiy o'quv jarayonidagi ishtirok imkoniyatlarini kengaytirishi lozim.

A. Al-Azawei, F. Serenelli va K. Lundqvistning tadqiqotlarida universal ta'lim dizayni va raqamli texnologiyalar integratsiyasi o'quv materiallaridan foydalanish imkoniyatini



kengaytirishi, ta'limiy faollikni oshirishi va o'zlashtirishdagi individual farqlarni hisobga olish imkonini berishi qayd etilgan [8].

D.L. Edyburn maxsus ta'lim texnologiyalarini tanlashda qurilmaning yangiligi emas, balki uning bolaning muayyan funksional muammosini qay darajada bartaraf etishi asosiy mezon bo'lishi kerakligini ta'kidlaydi [9]. Texnologik vosita bolaning mustaqilligini oshirsa, topshiriqni bajarish vaqtini qisqartirsa va o'qituvchi yoki ota-onaga qaramligini kamaytirsa, pedagogik jihatdan samarali hisoblanadi.

O'zbekistonda inklyuziv ta'limni rivojlantirish, maxsus ta'lim ehtiyojiga ega bolalarni umumta'lim maktablariga jalb qilish, korreksion yordam va individual ta'lim yo'nalishlarini tashkil etishga oid tadqiqotlar olib borilmoqda. Shunga qaramay, raqamli, assistiv va sun'iy intellektga asoslangan texnologiyalarning maxsus ta'lim ehtiyojiga ega bolalarning faoliyati va ijtimoiy moslashuviga ta'sirini empirik ko'rsatkichlar asosida baholash masalasi qo'shimcha tadqiqotlarni talab etadi.

Metodologiya. Tadqiqot maxsus ta'lim ehtiyojiga ega bolalarni qo'llab-quvvatlashda zamonaviy texnologiyalarning pedagogik samaradorligini aniqlashga qaratildi.

Tadqiqotning asosiy maqsadi assistiv va raqamli texnologiyalardan tizimli foydalanishning bolalarning ta'limiy faolligi, mustaqil topshiriq bajarishi, kommunikativ faolligi va ijtimoiy moslashuviga ta'sirini aniqlashdan iborat.

Tadqiqot vazifalari quyidagicha belgilandi:

1. Maxsus ta'lim ehtiyojiga ega bolalar uchun qo'llaniladigan zamonaviy texnologiyalarni tasniflash.

2. Bolalarning dastlabki ta'limiy va ijtimoiy rivojlanish ko'rsatkichlarini aniqlash.

3. Zamonaviy texnologiyalarga asoslangan korreksion-pedagogik dastur ishlab chiqish.

4. Tajriba va nazorat guruhlarini natijalarini qiyosiy tahlil qilish.

5. Zamonaviy texnologiyalarni amaliyotga joriy etish bo'yicha tavsiyalar ishlab chiqish.

Tadqiqotda Surxondaryo viloyatidagi inklyuziv ta'lim tashkil etilgan umumta'lim maktablarida tahsil olayotgan 8–12 yosh oralig'idagi 90 nafar maxsus ta'lim ehtiyojiga ega bola ishtirok etdi. Ishtirokchilar tasodifiy guruhlash asosida tajriba va nazorat guruhlariga ajratildi:

- tajriba guruhi - 45 nafar bola;

- nazorat guruhi - 45 nafar bola.

Ishtirokchilar orasida nutq va kommunikatsiya bilan bog'liq qiyinchiliklar, tayanch-harakat faoliyatidagi cheklovlar, diqqat va xulq-atvorni boshqarishdagi qiyinchiliklar, yengil darajadagi intellektual rivojlanish xususiyatlari hamda sensor ehtiyojlarga ega bolalar mavjud edi.

Tadqiqotda bolalarga tibbiy tashxis qo'yish yoki mavjud tashxisni qayta baholash vazifasi qo'yilmadi. Baholash bolaning ta'lim jarayonidagi funksional imkoniyatlari va pedagogik yordamga bo'lgan ehtiyojlariga qaratildi.

Tajriba-sinov ishlari 12 hafta davom etdi. Tajriba guruhida haftasiga uch marta 35–40 daqiqalik texnologiyaga asoslangan korreksion-pedagogik mashg'ulotlar tashkil etildi. Mashg'ulotlarda quyidagi vositalardan foydalanildi:

- matnni ovozlashtirish va ovozni matnga aylantirish dasturlari;

- vizual jadval va piktogrammalar;

- alternativ va qo'shimcha kommunikatsiya ilovalari;

- interaktiv ta'limiy o'yinlar;

- elektron ish varaqlari;

- sensor ekran va moslashtirilgan klaviatura;

- multimedia taqdimotlari;

- raqamli hikoyalar;

- topshiriq murakkabligini moslashtiruvchi dasturlar;

- sun'iy intellekt asosidagi individual tavsiya vositalari;

- yozish va mayda motorikani qo'llab-quvvatlovchi moslashtirilgan qurilmalar.

Nazorat guruhida mashg'ulotlar amaldagi an'anaviy pedagogik metodlar asosida davom ettirildi.



Tadqiqot natijalarini aniqlashda quyidagi metodlardan foydalanildi:

- pedagogik kuzatuv;
- individual va guruhli suhbat;
- o'quv topshiriqlarini bajarish monitoringi;
- pedagog va psixologlarning ekspert bahosi;
- ota-onalar bilan so'rov;
- mualliflik diagnostik kartasi;
- matematik-statistik tahlil.

Mualliflik diagnostik kartasi 24 ta indikatorni o'z ichiga oldi. Har bir indikator 0 dan 4 ballgacha baholandi va natijalar 100 ballik standart shkalaga aylantirildi. Diagnostik kartaning mazmuniy validligi maxsus pedagogika, psixologiya va inklyuziv ta'lim sohasidagi mutaxassislarining ekspert bahosi orqali tekshirildi. Ichki muvofiqlik ko'rsatkichi Cronbach alfa mezoni bo'yicha $\alpha = 0,86$ ni tashkil etdi.

Quyidagi komponentlar baholandi:

- ta'limiy faollik;
- mustaqil topshiriq bajarish;
- kommunikativ faollik;
- ijtimoiy moslashuv.

Olingan natijalar SPSS 26.0 dasturida qayta ishlandi. Statistik tahlilda o'rtacha qiymat, standart og'ish, Studentning juft va mustaqil tanlanmalar uchun t-mezoni hamda Cohen d effekt kattaligi ko'rsatkichlaridan foydalanildi. Statistik ahamiyatlilik darajasi $p < 0,05$ etib belgilandi.

Tadqiqot jarayonida ota-onalarning yozma roziligi olindi, bolalarga tadqiqotning mazmuni tushunarli shaklda izohlandi. Maxfiylik, ixtiyoriylik, zarar yetkazmaslik, bolaning sha'ni va manfaatlarini ustuvor qo'yish tamoyillariga rioya qilindi.

Tadqiqot natijalari. Tajriba-sinov ishlarining dastlabki bosqichida tajriba va nazorat guruhlarining ko'rsatkichlari o'zaro yaqin bo'lgan. Bu guruhlarining boshlang'ich holati qiyosiy tahlil uchun mos ekanini ko'rsatdi.

Jadval 1

Zamonaviy texnologiyalarni qo'llashdan oldingi va keyingi natijalar, N = 90

Baholash ko'rsatkichi	Tajriba guruhi, dastlabki Mean \pm SD	Tajriba guruhi, yakuniy Mean \pm SD	Nazorat guruhi, dastlabki Mean \pm SD	Nazorat guruhi, yakuniy Mean \pm SD
Ta'limiy faollik	52,8 \pm 9,4	67,2 \pm 8,6	53,1 \pm 9,2	56,7 \pm 9,0
Mustaqil topshiriq bajarish	48,9 \pm 10,2	63,5 \pm 9,1	49,4 \pm 10,0	53,2 \pm 9,7
Kommunikativ faollik	50,7 \pm 9,8	64,1 \pm 9,0	51,0 \pm 9,6	54,8 \pm 9,3
Ijtimoiy moslashuv	54,1 \pm 8,7	65,0 \pm 8,3	53,8 \pm 8,9	57,5 \pm 8,7

Jadval 1 ma'lumotlariga ko'ra, tajriba guruhida barcha ko'rsatkichlar bo'yicha ijobiy dinamika kuzatildi. "Ta'limiy faollik" ko'rsatkichi dastlabki bosqichdagi 52,8 ballidan yakuniy bosqichda 67,2 ballgacha oshdi. O'sish 14,4 ballni tashkil etdi. Nazorat guruhida ushbu ko'rsatkich 53,1 ballidan 56,7 ballgacha, ya'ni 3,6 ballga oshgan.

Tajriba guruhida "mustaqil topshiriq bajarish" ko'rsatkichi 48,9 ballidan 63,5 ballgacha ko'tarilgan. Bu bolalarning topshiriq mazmunini tushunishi, texnologik vositalardan maqsadli foydalanishi, faoliyat ketma-ketligiga rioya qilishi va kattalar yordamiga kamroq murojaat qilganini bildiradi. Nazorat guruhidagi o'sish 3,8 ballni tashkil etgan.

"Kommunikativ faollik" tajriba guruhida 50,7 ballidan 64,1 ballgacha oshgan. Piktogrammalar, vizual kartalar, ovozli dasturlar va alternativ kommunikatsiya vositalari



bolalarning ehtiyojini ifodalashi, savollarga javob berishi, suhbatni boshlashi va tengdoshlari bilan muloqotga kirishishini yengillashtirgan.

“Ijtimoiy moslashuv” ko'rsatkichi tajriba guruhida 54,1 balldan 65,0 ballgacha oshgan. Ushbu natija texnologiyaga asoslangan juftlik va guruhli mashg'ulotlar bolalarning hamkorlik qilishi, navbat kutishi, qoidalarga rioya etishi va umumiy faoliyatda ishtirok etishiga ijobiy ta'sir ko'rsatganini anglatadi.

Jadval 2

Tajriba va nazorat guruhlarining yakuniy natijalari bo'yicha statistik farqlar

Ko'rsatkich	O'rtacha farq	t qiymati	p qiymati	Cohen d
Ta'limiy faollik	10,5	5,66	< 0,001	1,19
Mustaqil topshiriq bajarish	10,3	5,20	< 0,001	1,10
Kommunikativ faollik	9,3	4,81	< 0,001	1,02
Ijtimoiy moslashuv	7,5	4,18	< 0,001	0,88

Jadval 2 natijalariga ko'ra, tajriba va nazorat guruhlarining yakuniy ko'rsatkichlari o'rtasidagi farqlar statistik jihatdan ahamiyatli bo'lgan, $p < 0,001$. Effekt kattaligi barcha ko'rsatkichlar bo'yicha yuqori darajada qayd etilgan.

Eng katta effekt “ta'limiy faollik” ko'rsatkichida kuzatilib, Cohen $d = 1,19$ ni tashkil etgan. Bu zamonaviy texnologiyalar bolalarning mashg'ulotlarga qiziqishi, topshiriqni boshlashga tayyorligi, diqqatni saqlashi va ta'lim jarayonida faol ishtirok etishiga sezilarli ta'sir ko'rsatganini bildiradi.

“Mustaqil topshiriq bajarish” ko'rsatkichida Cohen $d = 1,10$, “kommunikativ faollik”da Cohen $d = 1,02$ va “ijtimoiy moslashuv”da Cohen $d = 0,88$ natija aniqlangan. Mazkur ko'rsatkichlar texnologik vositalarning nafaqat akademik faoliyat, balki bolalarning muloqoti va ijtimoiy xulq-atvoriga ham ijobiy ta'sir ko'rsatganini ko'rsatadi.

Muhokama. Tadqiqot natijalari maxsus ta'lim ehtiyojiga ega bolalarni qo'llab-quvvatlashda zamonaviy texnologiyalardan tizimli foydalanish samarali ekanini ko'rsatdi. Tajriba guruhida ta'limiy faollik, mustaqil topshiriq bajarish, kommunikativ faollik va ijtimoiy moslashuv ko'rsatkichlarining sezilarli oshishi texnologik vositalar bolaning ta'lim jarayonida faol ishtirok etishi uchun qo'shimcha imkoniyat yaratishini tasdiqlaydi.

Ta'limiy faollikdagi yuqori o'sish multimedia materiallarining ko'rgazmaliligi, topshiriqlarning qisqa va tushunarli bosqichlarga ajratilishi, tezkor qayta aloqa hamda interaktiv elementlar bilan izohlanadi. Maxsus ta'lim ehtiyojiga ega ayrim bolalarda uzoq vaqt davomida bir xil faoliyatga diqqatni jamlash qiyin kechadi. Raqamli vositalar topshiriqlarni kichik qismlarga ajratish va faoliyat turlarini navbat bilan almashtirish imkonini bergan.

Mustaqil topshiriq bajarishdagi o'sish vizual ko'rsatmalar, elektron jadval, eslatma va algoritmlarning qo'llanilishi bilan bog'liq. Bunday vositalar bolaning topshiriq tartibini eslab qolishiga yordam berib, pedagog ko'magiga bo'lgan ehtiyojini kamaytirgan. Mazkur holat D.L. Edyburnning assistiv texnologiya shaxsning funksional mustaqilligini oshirishi kerakligi haqidagi qarashlariga mos keladi [9].

Kommunikativ faollikdagi ijobiy o'zgarishlar alternativ kommunikatsiya ilovalari va vizual vositalarning samaradorligini ko'rsatadi. Og'zaki nutqi cheklangan bola uchun fikrini ifodalash imkoniyatining yaratilishi uning ijtimoiy faolligini ham oshiradi. Muloqot vositasi mavjud bo'lmaganda bolaning ayrim xatti-harakatlari noto'g'ri ravishda intizomsizlik yoki qiziqmaslik sifatida talqin qilinishi mumkin. Aslida, bunday xatti-harakat kommunikativ ehtiyojni ifodalashning muqobil shakli bo'lishi ehtimoldan xoli emas.

Ijtimoiy moslashuv ko'rsatkichining oshishi zamonaviy texnologiyalar faqat individual faoliyat vositasi emasligini ko'rsatadi. Guruhli raqamli o'yinlar, interaktiv topshiriqlar, hamkorlikda yaratiladigan elektron hikoyalar va juftlikdagi mashqlar bolalarning tengdoshlari bilan o'zaro munosabatini rivojlantirgan.



Olingan natijalar universal ta'lim dizayni tamoyillari bilan hamohangdir. Axborotni turli shakllarda taqdim etish, topshiriqni bajarishning muqobil usullarini taklif qilish va motivatsiyani qo'llab-quvvatlash maxsus ta'lim ehtiyojiga ega bolalarning ta'limdagi ishtirokini kengaytiradi [6], [8].

Shu bilan birga, texnologiya o'qituvchi, psixolog, logoped yoki boshqa mutaxassis faoliyatini to'liq almashtirmaydi. Texnologik vosita pedagogik maqsad, individual rivojlanish dasturi va bolaning funksional ehtiyoji bilan uyg'unlashtirilgandagina samarali bo'ladi. Qurilma yoki dasturdan foydalanishning o'zi inklyuziv ta'limni ta'minlamaydi.

Texnologiyalarni tanlashda bolaning yoshi, sensor sezgirligi, motor imkoniyatlari, kommunikativ darajasi, kognitiv rivojlanishi va raqamli savodxonligi hisobga olinishi zarur. Masalan, ortiqcha animatsiya, kuchli ovoz yoki ranglarning tez almashishi ayrim bolalarda sensor zo'riqish va diqqatning chalg'ishiga sabab bo'lishi mumkin.

Sun'iy intellekt vositalaridan foydalanish ham pedagogik va etik nazoratni talab etadi. Sun'iy intellekt tomonidan berilgan tavsiya bolaning psixologik yoki tibbiy tashxisi sifatida qabul qilinmasligi kerak. Yakuniy pedagogik qaror mutaxassislar jamoasi, ota-ona va bolaning manfaatlarini hisobga olgan holda qabul qilinishi lozim.

Tadqiqot natijalarini talqin etishda ayrim cheklovlarni hisobga olish zarur. Birinchidan, tadqiqot ishtirokchilari bitta hududdagi ta'lim muassasalaridan jalb qilinganligi sababli natijalarni barcha hududlarga to'liq tatbiq etish ehtiyotkorlikni talab qiladi.

Ikkinchidan, maxsus ta'lim ehtiyojiga ega bolalar guruhi o'z xususiyatlariga ko'ra bir xil emas. Turli funksional ehtiyojlarga ega bolalarda muayyan texnologiyaning samaradorligi ham turlicha bo'lishi mumkin.

Uchinchidan, tajriba dasturi 12 hafta davom etgan. Natijalarning uzoq muddat saqlanishi va texnologiyadan foydalanish to'xtatilgandan keyingi holat alohida longitudinal tadqiqotlarni talab etadi.

To'rtinchidan, ayrim ko'rsatkichlar pedagog va mutaxassislarning kuzatuv baholariga asoslangan. Kelgusidagi tadqiqotlarda standartlashtirilgan xalqaro metodikalar, platformalarning avtomatik ma'lumotlari va ota-onalar baholarini kengroq birlashtirish maqsadga muvofiq.

Xulosa. Maxsus ta'lim ehtiyojiga ega bolalarni qo'llab-quvvatlashda zamonaviy texnologiyalardan foydalanish inklyuziv ta'lim sifatini oshiruvchi muhim pedagogik omil hisoblanadi. Assistiv qurilmalar, raqamli platformalar, mobil ilovalar, alternativ kommunikatsiya vositalari va sun'iy intellekt texnologiyalari bolalarning ta'lim materiallaridan foydalanish imkoniyatini kengaytiradi, kommunikativ to'siqlarni kamaytiradi va mustaqil faoliyatini rivojlantiradi.

Tadqiqot natijalariga ko'ra, zamonaviy texnologiyalarga asoslangan korreksion-pedagogik dastur qo'llanilgan tajriba guruhida ta'limiy faollik 14,4 ballga, mustaqil topshiriq bajarish 14,6 ballga, kommunikativ faollik 13,4 ballga va ijtimoiy moslashuv 10,9 ballga oshgan.

Tajriba va nazorat guruhlarining yakuniy natijalari o'rtasidagi farqlar statistik jihatdan ahamiyatli bo'lib, zamonaviy texnologiyalarning pedagogik samaradorligini ko'rsatgan. Ayniqsa, ta'limiy faollik va mustaqil topshiriq bajarish komponentlarida yuqori effekt aniqlangan.

Zamonaviy texnologiya o'z-o'zidan ta'lim sifatini ta'minlamaydi. Uning samaradorligi bolaning individual ehtiyojiga mos tanlanishi, pedagogik maqsadga yo'naltirilishi, mutaxassislar hamkorligida qo'llanilishi va natijalarning muntazam monitoring qilinishiga bog'liq.

Maxsus ta'lim ehtiyojiga ega bolalar uchun texnologiyalarni joriy etishda "avval bola va uning ehtiyoji, keyin texnologiya" tamoyiliga amal qilish zarur. Texnologik vosita bolaning real funksional muammosini bartaraf etishi, mustaqilligini oshirishi va ta'limdagi faol ishtirokini ta'minlashi lozim.

Foydalanilgan adabiyotlar ro'yxati.

1. O'zbekiston Respublikasining "Ta'lim to'g'risida"gi O'RQ-637-son Qonuni. 2020-yil 23-sentabr. Toshkent. Available at: <https://lex.uz>



2. O'zbekiston Respublikasi Prezidentining PQ-4860-son Qarori. "Alohida ta'lim ehtiyojlari bo'lgan bolalarga ta'lim-tarbiya berish tizimini yanada takomillashtirish chora-tadbirlari to'g'risida". 2020-yil 13-oktabr. Available at: <https://lex.uz>
3. United Nations. Convention on the Rights of Persons with Disabilities. New York: United Nations, 2006. 35 p.
4. World Health Organization, United Nations Children's Fund. Global Report on Assistive Technology. Geneva: World Health Organization, 2022. 142 p.
5. UNESCO. Global Education Monitoring Report 2020: Inclusion and Education - All Means All. Paris: UNESCO, 2020. 424 p.
6. CAST. Universal Design for Learning Guidelines, Version 2.2. Wakefield, MA: CAST, 2018.
7. Florian L., Black-Hawkins K. Exploring inclusive pedagogy // British Educational Research Journal. 2011. Vol. 37. No. 5. P. 813–828.
8. Al-Azawei A., Serenelli F., Lundqvist K. Universal Design for Learning: A content analysis of peer-reviewed journal papers from 2012 to 2015 // Journal of the Scholarship of Teaching and Learning. 2016. Vol. 16. No. 3. P. 39–56.
9. Edyburn D.L. Critical issues in advancing the special education technology evidence base // Exceptional Children. 2013. Vol. 80. No. 1. P. 7–24.
10. Bryant D.P., Bryant B.R., Smith D.D. Teaching Students with Special Needs in Inclusive Classrooms. Boston: Pearson, 2017. 480 p.

Jurnal O'zbekiston Respublikasi Prezidenti Administratsiyasi huzuridagi Axborot va ommaviy kommunikatsiyalar agentligi tomonidan 2025-yil 16-fevral kuni № 622042-sonli guvohnoma bilan ro'yxatga olingan.

Tahririyat manzili: 200117, O'zbekiston Respublikasi,
Buxoro shahri Alpomish ko'chasi, 9-uy
Elektron manzil: <https://fanistiqbollari.uz>
Telegram raqami: -998 (93) 689-80-90

*Ta'limda istiqbolli izlanishlar xalqaro ilmiy-metodik jurnal.
Buxoro, 2026. № 7-Son, 1-Qism.*